
ONLAYN INSHOLAR TANLOVI E'LON QILINDI

Fargona viloyat hokimligi hamda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan 9-10-11 sinf o'quvchilari o'rtasida "Ona tilim-jon tilim" mavzusida onlayn insholar tanlovi e'lon qilindi.

Jumladan, Qo'shtepa tumani hokimligi hamda tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan karantin muddatlaridan samarali va oqilona foydalanish maqsadida, mazkur mavzudagi onlayn insholar tanlovini e'lon qildi.

Tanlov shartlari - ajdodlarimizning boy merosini asrab-avaylash, milliy o'zlikni anglash va mustaqil davlatchilik timsoli bo'lgan, bebaho ma'naviy xazina, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida yuksak kuch - o'zbek tilining nufuzi va mavqeyini oshirishga doir qarashlar va bilimlarni ifodalash. So'zga bo'lgan hurmat hissi hamda yuksak tafakkurni namoyon etish.

Ijodiy ishlar dastlab tuman, shahar bosqichlarida saralanadi. Insholar 2020-yilning 15-apreliga qadar viloyat xalq ta'lim boshqarmasining https://t.me/ona_tilimtanlovi telegramm kanali orqali onlayn qabul qilinmoqda.

Har uch sinf kesimida uchtdan g'olib aniqlanadi va ularga qimmatbaho sovg'alar topshiriladi.

Ona tili - bebaho qadriyatdir. Biz uni e'zozlab, albatta e'zoz topamiz!

U. Xolmatov,

tuman hokimi maslahatchisi

2020-04-06 16:51:36